

TOG'AY MURODNING "YULDUZLAR MANGU YONADI" QISSASINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Shohrux Yoqubov Mamadiyor o'g'li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zga tilli guruhlarda
o'zbek tili yo'nalishi, 3-bosqich talabasi yoqubovshohrux706@gmail.com +998915044400*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi badiiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarda insonning hayotiy maqsadi, ruhiy poklanish, ezgulik va vijdon tamoyillarining yoritilishi, shuningdek, qismat va irodaning o'zaro munosabati tahlil markaziga qo'yiladi. Qissadagi obrazlar tizimi, ramziy qatlamlar, tabiat manzaralarining ma'naviy-ruhiy mazmun yaratishdagi o'rni, inson va olam uyg'unligi, yulduzlar timsolining falsafiy yuklamasi izohlanadi. Maqolada yozuvchining badiiy uslubi, lirizm va falsafiy mushohadalar uyg'unligi, milliy mentalitet aksining poetik xususiyatlari ochib beriladi. Asarning zamonaviy o'quvchi tafakkuridagi axloqiy-estetik ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tog'ay Murod, "Yulduzlar mangu yonadi", badiiy tahlil, falsafiy talqin, obrazlar tizimi, ramz, yulduz timsoli, ruhiy kechinma, lirizm, milliy mentalitet, ezgulik, vijdon, qismat, inson va tabiat uyg'unligi, poetika.

Tog'ay Murod ijodi o'zbek adabiyotida milliy ruh, xalqona so'zlashuv uslubi va sodda tasvirning o'ziga xos uyg'unligi bilan ajralib turadi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini o'qiganda, yozuvchining bayon uslubi boshqa ko'plab adabiy asarlardan mutlaqo farq qilishini sezish mumkin.

Muallif voqealarni go'yo Surxon vohasidagi tinglovchilariga hikoya qilib berayotgandek tabiiy, jonli va sodda til bilan bayon etadi. Bu uslub nafaqat Surxon eliga, balki mamlakatning istalgan hududidagi o'quvchiga yaqin bo'lib, uni matnga chuqurroq sho'ng'ishga undaydi.

Qissada bayon tili ortiqcha bezaklarsiz, biroq milliy ruhni kuchli aks ettirgan holda qurilgan va o'ziga xos poetik nasr yaratgan: qisqa, keskin, mazmunli jumlar, xalqona iboralar, obrazli tasvirlar matnga jonli ohang beradi.

Bu uslub kitobxonni voqealar ichiga kirgandek his qilishga majbur etadi. Qissa voqealarining tabiiyligi va hayotiyliги aynan shu uslub orqali kuchayadi. Asarning asosiy badiiy qudrati oddiy insonlarning ichki dunyosini tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Qahramonlar uchun or, nomus, g'urur, uyat, andisha, mardlik, halollik kabi fazilatlar alohida qahramonlik emas - ular milliy mentalitetning tabiiy tarkibi sifatida beriladi.



Yozuvchi ushbu qadriyatlarning yo'qolib borayotganidan tashvishlanadi va o'quvchini milliy ma'naviy merosni asrashga undaydi. Qissadagi Bo'ri polvon obrazi ana shu qadimiy fazilatlarining timsoli bo'lib, xalqning ko'hna urf-odatlarini, ayniqsa kurash san'atining nozik jihatlari o'zida mujassam etadi.

Asarda ko'tarilgan asosiy muammolardan biri -milliy ma'naviy merosning asta-sekin unutilishi. Bu masala kurashning qadimiy qoidalari, xalqona marosimlar, odob me'yorlari tasviri orqali ochiladi. Muammoning yechimi sifatida muallif xalq qadriyatlarini badiiy yodgorlik sifatida qayta tiklaydi, ularni yangi avlodga estetik zavq orqali yetkazadi.

Ikkinchi muammo -qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi uzilish. Yozuvchi buni tasviriy detal va hayotiy lavhalar orqali tahlil qiladi. Yechim sifatida esa u milliy an'analarning zamon bilan uyg'unlashishi zarurligini ko'rsatadi: qadriyatlarni inkor etmasdan, balki ularni anglab, yangicha mazmun bilan boyitish.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasi Tog'ay Murod ijodining ma'naviy-estetik mohiyatini chuqur yoritib beruvchi asardir.

Muallif milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni zamon bilan uyg'unlashtirish va avlodlar xotirasiga singdirishning naqadar muhimligini obrazlar, ramziy detallar va hayotiy voqealar orqali isbotlaydi.

Asar o'zbek xalqining ruhiy olamiga xos fazilatlar — mardlik, halollik, or-nomus, kamtarlik kabi sifatning badiiy qiymatini yuksaltiradi.

Yozuvchi milliy ma'naviy meros faqat tarixiy xotira emas, balki jamiyatning bugungi tarbiyasi, madaniy o'zligi va kelajak istiqbolini belgilab beruvchi omil ekanini ilmiy-badiiy tarzda asoslaydi. Shu jihatdan qissa faqat bir avlod uchun emas, balki milliy ongning izchil davomiyligini ta'minlovchi adabiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

To'g'ay Murodning ushbu asari bizga or-nomus, vijdon va har bir vaqt va an'analarni qadrlashni o'rgatadi. Milliylik, milliy ruh hayotimizning ajralmas bo'lagidir.

Biz ham o'tmishni ham kelajakni unutmasligimiz, har bir an'anaga sodiq qolishimiz kerakdir. Eng asosiysi esa insoniylikni unutmaslikdir. Chunki inson qadri har doim birinchi o'rinda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2009.
2. Norboyeva D. MILLIY QADRIYATLAR BADIY IFODASI (Tog'ay Murod qissalari misolida) // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4, № 2. – B. 201–207.
3. Sa'dullaeva Sh. Tog'ay Murod asarlarida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini // – Nukus: SamDU kutubxonasi, 2014.





4. Xolmurodov A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati // O'zbek tili va adabiyoti.
– 2003. – № 5.

